

PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATIDA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Urakov Djaxongir Rajabovich

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: [0000-0003-0078-2463](https://orcid.org/0000-0003-0078-2463)

udjahongir@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15399621>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati yoritilgan. Muallif huquqiy asoslar, raqamlashtirish jarayoni, elektron tizimlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilgan. Shuningdek, raqamli infratuzilmani yaratish va xodimlar malakasini oshirish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli prokuratura, yoshlar, huquqbuzarlik, profilaktika, axborot texnologiyalari, elektron tizimlar.

Kirish qismi: Bugungi kunda jamiyatni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Prokuratura organlari faoliyati samaradorligi ma'lum darajada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilish qamrovi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, prokuratura organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xizmatlar turlaridan kengroq foydalanish e'tibor markazdagi asosiy masalalardan hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 4 sentyabrdagi 447-son qaroriga asosan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xizmatlar turlariga telekommunikatsiya xizmatlari, dasturiy apparat komplekslari, axborot va boshqaruv tizimlari, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, loyihalashtirish, ko'maklashish va texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlari, ushbu sohadagi boshqa xizmatlar, axborot va ma'lumotlar bilan ishlash xizmatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa xizmatlar [1] kiradi.

Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish mazkur yo'nalishda samaradorlikni oshirishning zaruriy sharti bo'lgan muhim jarayondir.

Yoshlar o'rtasida sodir etilgan huquqbuzarliklar va ularga oid statistik ma'lumotlarni xolis qayd etish, bu yo'nalishdagi ishlarni tashkil etishda qonunbuzilishlarni oldini olish, aniq maqsadga yo'naltirilgan tezkor profilaktik choralarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, prokuratura organlari tomonidan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish ular oldida turgan asosiy vazifa bo'lib, zamonaviy axborot texnologiyalarini mazkur yo'nalishdagi faoliyatga keng joriy etish orqali huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni tezkor aniqlash hamda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirishga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori N.Yo'ldoshevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik uchinchi yalpi majlisidagi axborotida qayd etilishicha, "faoliyatimizni jinoyatning oqibatiga qarshi kurashishga emas, uni keltirib chiqarayotgan omillarni bartaraf qilishga yo'naltirdik. Tegishli idoralar bilan hamkorlikda jinoyatlarni aniqlanadigan va oldini olish mumkin bo'lgan toifalarga ajratgan holda hisobini yuritish, tadbirlarni shunga mos tashkil etish tizimini yo'lga qo'ydik. Faoliyatga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ishlari izchil davom ettirildi. Tizimda ish yuritish to'liq elektron shaklga o'tkazildi, zamonaviy IT tuzilma shakllantirildi. Elektron ish yuritish tizimida 35 dan ortiq yangi dastur ishga tushirilib, boshqa idoralarning 100 dan ortiq tizimiga integratsiya qilindi. Bunday choralar tizimda qog'ozbozlikka chek qo'ydi, xodimlar yuklamasini engillashtirdi, vaqt va mablag' tejallishiga xizmat qildi.

Prokuratura organlari faoliyatini yaqin istiqbolda rivojlantirish borasida ham rejalarimiz bor. Eng avvalo, prokuratura faoliyatining tashkiliy-huquqiy tomonlari yanada mustahkamlanadi. Faoliyatga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ishlari izchil davom ettiriladi. Bu borada, faoliyatimizni raqamli transformatsiya qilish bo'yicha "Raqamli prokuratura 2030 strategiyasi" va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash nazarda tutilmoqda. Bu bilan prokuratura organlari faoliyati to'liq raqamlashtiriladi. Jumladan, qonunchilik ijrosi va tergov faoliyati ustidan elektron nazorat yo'lga qo'yiladi. Elektron shaklda qabul qilinadigan murojaatlar ulushi 90 foizga yetkaziladi.

Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etishda nazorat-tekshiruv idoralari bilan hamkorlik va axborot almashinuvi yanada kuchaytiriladi" [2].

Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyati samaradorligini elektron tahlil qilish, yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni raqamli

indikatorlardan kelib chiqqan holda tashkil etish, prokuratura organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari doirasida yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etishga oid statistik ma'lumot va hisobotlarini raqamli ma'lumotlar bazasiga integrasiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatida axborot kommunikasiya texnologiyalarining keng joriy etilishi va avtomatlashtirilgan elektron axborot almashinuv tizimining yo'lga qo'yilishi yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishi holatini aniqlash va profilaktika qilish jarayonida avtomatlashtirilgan elektron tizim ma'lumotlari asosida hujjatlar ijrosini tahlil qilish mumkin bo'ladi. Bu esa, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha prokuratura faoliyatida va bu yo'nalish bo'yicha prokuror nazoratini amalga oshirish jarayonida ortiqcha qog'ozbozliklarning oldini olishga, qonun hujjatlarida mustahkamlangan prokuratura organlarining vazifalari ijrosini sifatli va o'z vaqtida bajarishga, mehnat samaradorligi va natijadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasida samarali tashkiliy ishlarni olib borishining zaruriy sharti axborot-tahliliy faoliyat bo'lib, uning natijalari axborot tizimi (dasturiy, texnik, huquqiy, axborot, tashkiliy, matematik va lingvistik ta'minotlar) sifatiga bog'liq hisoblanadi. Prokuratura organlari tomonidan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini axborot tizimi (dasturiy, texnik, huquqiy, axborot, tashkiliy, matematik va lingvistik ta'minotlar) bilan ta'minlashning asosiy maqsadi prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatiga oid axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish, shuningdek uning samaradorligi, natijadorligi to'g'risida xolis ma'lumot berish, ushbu yo'nalishdagi faoliyatini maqbul va ishonchli boshqarish uchun shart-sharoit yaratishdan iborat.

S.A. Besschasniyning fikriga ko'ra, "Prokuratura organlarining amaliy faoliyatiga yuqori texnologik nazoratni joriy etish, prokuratura va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning shaffof muhitini yaratish, qonunbuzarliklarga prokuror tomonidan javob berish samaradorligini oshirish, shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda muvofiqlashtirish prokuratura organlari faoliyatini raqamlashtirishning asosiy maqsadlaridan biridir" [3].

Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatiga joriy etilayotgan axborot texnologiyalari mazkur sohada qonun ustuvorligini mustahkamlash, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining samaradorligi va sifatini yanada oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi vosita sanaladi.

Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha videomateriallar tayyorlash, axborot tizimlari bilan ishlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish va uni o'zlashtirishga qaratilgan maxsus kurslar tashkil qilish xodimlarning mavjud zamonaviy axborot tizimlaridan xabardorligini ta'minlaydi hamda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirishda ulardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida vazirliklar, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar bilan xavfsiz raqamli makonda o'zaro hamkorlik qilish imkonini beruvchi yuqori sifatli raqamli infratuzilmani yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

S.X. Djioevning fikriga ko'ra, "Zamonaviy davrning o'ziga xos xususiyati axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning inson faoliyatining barcha sohalariga keng joriy etilishi bo'lib, bu davlat organlari, fuqarolik jamiyati tuzilmalari va alohida fuqarolar o'rtasidagi ko'plab aloqa jarayonlarini soddalashtirish va takomillashtirish imkonini berdi" [4].

I.E. Gaysinskiy, N.D. Nikonenko, M.V. Perovalarning ta'kidlashicha, "Huquqni muhofaza qilish va inson huquqlari sohasida axborot texnologiyalari huquqiy normalarni yanada samarali qo'llash va kasbiy faoliyatni optimallashtirishga yordam beradi" [5].

T.S.Tarasovanning fikricha, "Prokuratura organlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy maqsadlari qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Prokuratura faoliyatini optimallashtirish asosida prokuratura faoliyati samaradorligini oshirishga, prokuratura, jamiyat va davlat hokimiyati organlarining erkin, barqaror va xavfsiz hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan yuqori texnologik nazoratni shakllantirish;

2. Nazorat funksiyalarini tez va xatosiz amalga oshirish uchun sharoit yaratish;

3. Raqamli iqtisodiyotga o'tish uchun shart-sharoitlar yaratish, qog'oz va elektron shakldagi hujjatli axborot oqimini optimallashtirish" [6].

A.Yu.Tixiyning qayd etishicha, "Prokuratura organlari faoliyatini raqamlashtirishning asosiy vazifalari prokuratura organlarining amaliy faoliyatiga yuqori texnologik nazoratni joriy etish, prokuratura va fuqarolarning o'zaro hamkorligi uchun shaffof muhitni yaratish, qonun buzilishi holatlariga nisbatan tezkor prokuror ta'sir choralari qo'llash samaradorligini oshirish, shuningdek raqamli texnologiyalardan foydalangan holda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat" [7].

Shuni ta'kidlash lozimki, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida axborot tizimlari muhim rol o'ynaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shu jumladan, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatiga axborot tizimlarini keng joriy etish avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanib yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi arizalar va xabarlarining yagona statistik hisobini yuritish, huquqbuzarliklar holati va profilaktikasi samaradorligini tahlil qilib borish hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni belgilab olish imkonini beradi.

Snoski/Iqtiboslar/References

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 4 sentyabrdagi □ Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xizmatlar turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 447-son qarori. <https://lex.uz/docs/6607123>
2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2024 yil 21 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik uchinchi yalpi majlisidagi axboroti. https://www.youtube.com/watch?v=-QaDs-__RTA
3. Бессчастный С.А. Цифровая трансформация органов прокуратуры Российской Федерации. Цифровизация деятельности органов прокуратуры: сб. материалов семинара (круглого стола) (Москва, 30 сентября 2020 г.); под общ. ред. И.В. Горошко; сост. А.Л. Коренюк; Ун-т прокуратуры Российской Федерации. – М., 2021. -С.8.
4. Джигоев С.Х. Вопросы развития информационных технологий и систем в деятельности органов прокуратуры. Вестник Университета имени О.Е.Кутафина

- (МГЮА). 3/2022. -С.52. [file:///C:/Users/User/Downloads/1690-2378-1-SM%20\(6\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/1690-2378-1-SM%20(6).pdf)
5. Гайсинский И.Е., Никоненко Н.Д., Перова М.В. Исследование некоторых аспектов повышения эффективности интернет-сайтов муниципальных образований // Государственное и муниципальное управление: ученые записки СКАГС. 2015. № 4. -С. 76. <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-nekotoryh-aspektov-povysheniya-effektivnosti-internet-saytov-munitsipalnyh-obrazovaniy>
6. Тарасова Т.С. Информационные системы в органах и организациях прокуратуры: понятие, преимущества и недостатки. «Молодой учёный». № 23 (470). Июнь 2023 г. -С.388. <https://moluch.ru/archive/470/103828/>
7. Тихий А.Ю. Использование дистанционных технологий при реализации функций органов и организаций прокуратуры. Информационные технологии в деятельности органов прокуратуры: сб. материалов науч.-практ. конф. (г. Казань, 20 мая 2022 г.); сост. М.М. Шакирьянов, М.А. Гаврилов; Казанский юридический институт (филиал) Университета прокуратуры Российской Федерации. – Казань, 2022. -С. 47. <http://213.171.58.226:22289/Fmt6qU01/2022/%D0%A1%D0%B1%D0%BE%D1%80>